

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SAIDOVA SUBHINIGOR AZIZOVNA

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AYOLLARNI TADBIRKORLIK
FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH
YO'LLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 336.713:334.722-055.2(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**
**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Saidova Subhinigor Azizovna
Tijorat banklari tomonidan ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalash-
tirishni takomillashtirish yo'llari 3

Сайдова Субхинигор Азизовна
Пути улучшения финансирования женской предпринимательской
деятельности коммерческими банками..... 31

Saidova Subhinigor Azizovna
Ways to improve the financing of women's entrepreneurial activity by
commercial banks 61

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ 66
List of published works


TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc-03/10.12.2019.1.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SAIDOVA SUBHINIGOR AZIZOVNA

**TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AYOLLARNI TADBIRKORLIK
FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH
YO'LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI



Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/143782 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Mo'minova Ma'suda Baxtiyarovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Ismoilov Alisher Agzamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibodullayeva Ma'rifat To'liqin qizi
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "9" kuni soat 14 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.:(99871) 239-28-72; faks (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1836 raqamli bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.:(99871) 239-28-72; faks (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "20" kuni tarqatildi.
(2025-yil) "20" 11 daqiqa 107 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida tijorat banklari tomonidan ayollarning tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish inklyuziv iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, gender tengligini ta'minlash va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash orqali kredit resurslariga yetarli kirish imkoniyati yaratiladi, ularning biznes salohiyatini ro'yobga chiqarish, oilaviy daromadlarni oshirish va mahalliy bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkoni paydo bo'ladi. Bundan tashqari, ayollar tomonidan boshqarilayotgan kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyalashtirish iqtisodiyotda diversifikatsiyani chuqurlashtirish hamda innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etishda katta turki beradi. Xalqaro tadqiqotlarda ham ta'kidlanganidek, "ayollarni tadbirkorlikda moliyalashtirishga qaratilgan bank xizmatlari iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish va kambag'allikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi"¹. Bundan ko'rinadiki, ayollarning tadbirkorlik faoliyatini tijorat banklari orqali moliyalashtirish jahon iqtisodiyotida barqaror va inklyuziv rivojlanishning muhim drayveri hisoblanadi.

Jahon miqyosida ayollar ish bilan bandligini ta'minlashning samarali mexanizmlarini takomillashtirish borasida muhim va keng ko'lami tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayol ishchi kuchining zamonaviy ish o'rinlari tuzilishi o'zgarishiga moslashuvini oshirish, virtual ish joylarini joriy etishning samarali va tezkor innovatsion yo'llarini ishlab chiqish, kasbiy malakalarni oshirishda ish beruvchilarning talablariga asosan malaka oshirish tizimini tashkil etish, farzandlar tug'ilishi hamda ularning tarbiyasi bilan bog'liq ayollarning hayotiy sikl modelini e'tiborga olgan holda, qo'shimcha ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash strategiyalaridan foydalanishning ilmiy asoslarini takomillashtirish bu boradagi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan ayollarning tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar gender tengligini ta'minlash va inklyuziv iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan vazifalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, banklar tomonidan ayollar tadbirkorligi uchun maxsus kredit liniyalari tashkil etildi, imtiyozli moliyalashtirish dasturlari yo'lga qo'yildi hamda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik subyektlari uchun mikroreditlar ajratish kengaytirildi. Shu bilan birga, ayol tadbirkorlar moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan treninglar, biznes-ta'lim-kurslari va konsalting xizmatlari tashkil etilmoqda. Mamlakatda 2022-yildan amalga oshirilayotgan "Ayollar dafari" tizimi orqali tijorat banklari kam ta'minlangan va ishsiz xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyalashtirishda ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, ularning iqtisodiy faollik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni va nufuzini oshirish, ularning o'z salohiyatini namoyon etishlari uchun sharoitlar yaratish, gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi izchil chora-tadbirlarni amalga

¹ World Bank, Women, Business and the Law 2023, World Bank Group, Washington D.C., 2023. URL: <https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1972-8>

o'shinish bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida", 2022-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmon-lari, 2024-yil 7-martdagi PQ-122-son "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklari tomonidan ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish masalalariga xorijlik iqtisodchi olimlardan E.Giddens, T.Parson, G.Sillaste ilmiy ishlarida ayollar tadbirkorligining rolini oshirish bo'yicha ilmiy nazariy yondashuvlar shakllantirilgan. Rossiyalik olimlardan A.Y.Kolobova, Y.S.Pinkoveskaya, N.Y.Utkina, A.S.Abritalina, A.A.Moiseyeva kabilarning ilmiy ishlari ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalalariga qaratilgan².

O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalalari N.R.Annayevaning dissertatsiyasidagi "ayollarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi, xususan, tadbirkorlikdagi faolligi masalalari ma'lum darajada nazariy ahamiyat kasb etgan"³, J.X.Bobanazarova, M.M.Baltabayeva, M.S.G'aniyeva, D.B.Axmedova, N.M.Xasanova, H.B.Xo'jayorov va boshqalarning ilmiy ishlarida ham atroflicha o'rganilgan⁴.

² A.E. Колобова Женщины-предприниматели среднего и старшего возраста: штрихи к портрету / А.Е. Колобова // Женщина в российском обществе. 2016, No 1 (78). – С 51–59; Вопросы менеджмента. 2019, No 2 (38) Пинковская Ю.С. Развитие женского предпринимательства в России: управленческий анализ // Вопросы управления. 2019, No 2 (38). С. 122–131. Уткина, Н.Ю. Объективные и субъективные факторы развития женского предпринимательства в России / Н.Ю. Уткина // Женщина в российском обществе. 2017, No 1 (82). – С17–27.

А.С.Абриталина, Женское предпринимательство: социальное-экономические мотивации и факторы: автореферат дис. кандидата социологических наук. 22.00.03 / Саратовский государственный университет им. Н.Г. Чернышевского. – Ташкент, 2020. 20 стр.

А.А. Моисеева Образовательные стратегии женского предпринимательства России и Казахстана (на примере малого и среднего бизнеса): автореферат дис. кандидата социологических наук: Саранск, 2025. 27 стр.

³ N.R.Annayeva. Ayollar tadbirkorligining genezisi, nazariyasi va amaliyoti (O'zbekiston misolida, Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2018. 48-b.

⁴ J.X.Bobanazarova Qishloq joylarida ayollar ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2019. 70-b.

M.M. Baltabayeva. O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ishtiroki (1991–2019-yil) Dis. t.fbo'yicha falsafa doktori (PhD). – Andijon., 2019. 53-b.

Biroq respublikamizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ba'zi muammolarning mavjudligi mazkur ilmiy mavzuda tadqiqotlar olib borishning dolzarbligini asoslab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashirishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklari tomonidan ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklarida tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarning nazariy-metodologik va uslubiy yondashuvlarining qiyosiy tahlili asosida ma'lumotlarni umumlashtirish va muallif ta'rifini shakllantirish;

tijorat banklarida ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning huquqiy-me'yoriy jihatlarini tadqiq qilish;

tijorat banklarida ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni zamonaviy usullarini tahlil qilish;

tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlil etish;

O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy tavsiya va amaliy takliflar ishlab chiqish;

ayol tadbirkorlarni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni rivojlantirish tendensiyalarini tadqiq qilish;

O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llarini hisobga olgan holda takliflarni shakllantirish.

Tadqiqotning obyekt sifatida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish jarayonlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti tijorat banklari tomonidan ayollarni tadbirkorlik

M.S.G'aniyeva "Jamiyatni yangilanish davrida gender munosabatlari: tadbirkor-ayol fenomeni misolida" mavzusidagi ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2025. 5-b. 2

D.B.Axmedova. "Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari" mavzusidagi falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2023. 56-b.

N.M.Xasanova. "O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi ishtiroki (1991–2021-yillar Andijon viloyati misolida)" mavzusidagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2024. 61-b.

H.B.Xo'jayorov. Tijorat banklarida kreditlash xizmatlari samaradorligini oshirish yo'llari Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. 56-b.

faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tadqiqotni o'rganishga tizimli yondashuv, so'rovnomma va kuzatuv, tahlil va prognozlashning grafik, statistik va ekonometrik usullari, olingan tadqiqot natijalarini umumlashtirish usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "tadbirkor ayol" tushunchasining iqtisodiy mazmuni moliyaviy xizmatlar, investitsiyalar va texnologiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan va o'z biznesiga ega bo'lgan va biznesini yuritadigan ishbiarmon, boshqaruvchi, lider ayol nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

tijorat banklari tomonidan ayollar loyihalarni kraudfanding asosida moliyalashtirishda "xayriya kraudfanding", "aksiyadorlik kraudfanding", "kollending" va "kraudfandingni mukofotlash" turlarini o'zaro uyg'unlashtirish orqali manbalar sonini oshirish va aholini bo'sh pul mablag'larini loyihalarga jalb etish taklifi asoslangan;

ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda daromad darajasi bo'yicha "yuqori daromadli" (0,86-1,00), "o'rta yuqori daromadli" (0,70-0,85), "quyi o'rta daromadli" (0,55-0,69) va "quyi daromadli" (0-0,54) toifalarga ajratish orqali ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga olib keluvchi miqdoriy chegaralar asoslangan;

tijorat banklari tomonidan ikkilamchi obligatsiyalar chiqarish yordamida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari va daromadligini oshirish asosida aktivlarni sekuritizatsiyalash orqali ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish manbalarini takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tijorat banklari tomonidan ayollarni moliyalashtirishni takomillashtirishning nazariy-uslubiy jihatli asoslangan;

viloyatlar va tumanlar kesimida ayollarni moliyalashtirish qiyosiy tahlil qilinib, hozirgi sharoitda O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishni takomillashtirish zarurligi ko'rsatib berilgan;

tijorat banki tomonidan ayollarni moliyalashtirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi va uni O'zbekiston iqtisodiyotida qo'llash imkoniyatlari bayon etilgan;

tijorat banki faoliyatida ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda yangi usullarni joriy etish yo'llari tasniflangan;

tijorat banki faoliyatida ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha tavsiya va xulosalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqot natijalarining haqqoniyligi foydalanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bandlek va mehnat munosabatlari vazirligi, Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlardan olinganligi, boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi hamda tegishli xulosa va tavsiyalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ayollar ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish va tartibga solish, uning istiqbolli yo'nalishlarini tadqiq etish masalalariga oid maxsus ilmiy ishlarida manba sifatida qo'llana olishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklari tomonidan ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "tadbirkor ayol" tushunchasining iqtisodiy mazmuni moliyaviy xizmatlar, investitsiyalar va texnologiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan hamda o'z biznesiga ega bo'lgan, biznesini yuritadigan ishbiarmon, boshqaruvchi, lider ayol nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Investitsion banklar" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 24-dekabrda 446-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalar tijorat banki tomonidan ishlab chiqiluvchi kredit siyosatiga muvofiq ravishda o'zaro ta'sir etuvchi va bir-birini to'ldiruvchi ikki yoki undan ortiq elementlarning obyektiv, yaxlit hamda yagona tavsifga ega bo'lgan yig'indisi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan "ayollar tadbirkorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan yangi nazariy bilim va ko'nik-malarni hosil qilish imkoni yaratilgan;

tijorat banklari tomonidan ayollar loyihalarni kraudfanding asosida moliyalashtirishda "xayriya kraudfanding", "aksiyadorlik kraudfanding", "kollending" va "kraudfandingni mukofotlash" turlarini o'zaro uyg'unlashtirish orqali manbalar sonini oshirish va aholini bo'sh pul mablag'larini loyihalarga jalb etish taklifi "Mikrokreditbank" Aksiyadorlik tijorat banki faoliyatiga joriy etilgan ("Mikrokreditbank" Aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yil 4-dekabrda № 05-12/32701-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Mikrokreditbank" Aksiyadorlik tijorat bank omonatlaridan foydalanishning kengayishi banklardagi resurs taqchilligini bartaraf etish, kredit portfelidagi ayollarga ajratilgan salmog'ini oshirish imkoni yaratilgan;

ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda daromad darajasi bo'yicha "yuqori daromadli" (0,86-1,00), "o'rta yuqori daromadli" (0,70-0,85), "quyi o'rta daromadli" (0,55-0,69) va "quyi daromadli" (0-0,54) toifalarga ajratish orqali ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga olib keluvchi miqdoriy chegaralardan foydalanish taklifi "Mikrokreditbank" Aksiyadorlik tijorat banki amaliyotga joriy etilgan ("Mikrokreditbank" Aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yil 4-dekabrda № 05-12/32701-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida kredit ta'minoti sifatini baholash mezonlarini sinflarga ajratilishi kredit operatsiyalari bo'yicha risklarni minimallashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatib, bank kredit portfelidagi muddati o'lgan kreditlar ulushi 3,0 % ni (532 mlrd. so'm) tashkil etgan;

tijorat banklari tomonidan ikkilamchi obligatsiyalar chiqarish yordamida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari va daromadligini oshirish

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tijorat banklarida ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tijorat banklarida tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar, tijorat banklarida ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning huquqiy-me'yoriy jihatlarini va tijorat banklarida ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish shakllantirish yo'llari ko'rib chiqilgan hamda bob so'ngida xulosalar shakllantirilgan.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda postindustrial jamiyatning shakllanishi jarayonida xizmat ko'rsatish sohasining keskin rivojlanish tendensiyalari namoyon bo'ldi. Bunda kichik va o'rta biznesning ulushi ortib borgan holda, mamlakat iqtisodiyotida inson resurslaridan maksimal darajada samarali foydalanish zaruriyati vujudga keldi. Natijada ayollar tadbirkorligi faoliyatining rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratila boshlandi.

Rossiyalik iqtisodchi olim A.V. Alimpiye tomonidan biznes sohasida ayollarni strategik xususiyatlari hamda tadbirkorlikni oilaviy faoliyatiga ta'sirini o'rganan, A.V. Orlova, asosan, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ma'lumotlar manbasiga va empirik tahlil etish metodikasiga e'tibor qaratgan. R.I. Semenov va Z.I. Raymanovalarning tadqiqot ishlari ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga to'xtatuvchi va to'sqinlik qiluvchi to'siqlarni tahlil qilgan. Shu bilan birga, mahalliy iqtisodchi olimlar Z.R. Xusanova davlat tomonidan bu sohani rivojlantirishga qaratilgan, M.S.G'aniyeva xotin-qizlarning kichik va o'rta biznes, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishga doir muammolar o'rganilgan va T.K. Narbayeva gender tengligiga erishishda innovatsion uyg'unlik jihatlarga e'tibor qaratgan. Iqtisodchi olimlarning fikrlarini o'rganan holda **“Tadbirkor ayol”** tushunchasining iqtisodiy mazmuni **“moliyaviy xizmatlar, investitsiyalar va texnologiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan va o'z biznesiga ega bo'lgan va biznesini yuritadigan ishlabarmon, boshqaruvchi, lider ayol”** mualliflik ta'rifi taklif etilgan.

Ko'pgina xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlarida **“ayollar tadbirkorligi va ularni tadbirkorlikka keng jalb qilish”** tushunchasining mohiyatini belgilab berishga e'tibor qaratadilar. Ayol ona, ishchi, xodim va uy bekasi, bu ikki taraflama og'irlikni birga qo'shib olib borish uchun ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim. Bu jarayonni gender tengligi darajasida o'rganib, nafaqat ijtimoiy ishlab chiqarishda ish bilan bandlik balki, ularning oilaviy muammolar, bolalar tarbiyasi bilan mashg'ulligini yengillatish kerak» deb hisoblaydilar.

Hozirgi kunda jahon miqyosidagi aholining iqtisodiy faolligini gender

asosida aktivlarni sekyuritizatsiyalash orqali ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish manbalarini takomillashtirish taklifi **“Mikrokreditbank”** Aksiyadorlik tijorat banki faoliyatini amaliyotga joriy etilgan **“Mikrokreditbank”** Aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yil 4-dekabrda № 05-12/32701-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida **“Mikrokreditbank”** Aksiyadorlik tijorat banki faoliyatida 2024-yil holatiga yuqori likvidli aktivlari hajmi o'tgan hisobot davriga nisbatan 1,8 % ga, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarning mutlaq hajmi o'tgan hisobot davriga nisbatan 46 % ga ortishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatitsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 15 ta jumladan, 7 ta respublika va 8 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida 8 ta ma'ruza tezisi chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 127 betdan iborat.

yondashuvlari asosida tahlil etadigan bo'lsak, ayollarning mehnatda bandligi tobora ortayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, O'zbekiston aholisining iqtisodiy faolligida ayollarning salmog'i boshqa davlatlarga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).


1-jadval

Aholining iqtisodiy faolligi (%) ⁵		
Hudud miqyosi	Ayollar	Erkaklar
Dunyo bo'yicha	53,1	80,3
Rivojlangan mamlakatlarda	50,4	67,5
O'tish davridagi mamlakatlarda	51,0	70,5
O'zbekistonda	68,9	72,7

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, agar dunyo bo'yicha ayollarning iqtisodiy faolligi eng past ko'rsatkichlarda namoyon bo'layotgan bo'lsa, O'zbekistonda ayollarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichi, rivojlangan yoki o'tish davridagi mamlakatlardagi holatdan yuqori deb baholash mumkin.

O'zbekistonda ayollarning mehnat bozoriga jalb etilish darajasi jahon va daromadi o'tachadan yuqori bo'lgan mamlakatlarning o'rtacha ko'rsatkichlariga, shuningdek, ayrim qo'shni davlatlarga nisbatan pastligini ko'rsatadi.

O'rganilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ayollar mehnat bozorida kamroq (boshqa mamlakatlardagi ayollarga qaraganda) ishtirok etadi va (boshqa mamlakatlardagi ayollar hamda O'zbekistondagi erkaklarga qaraganda) ishsiz ayollar soni ko'proq. Shuningdek, tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekistondagi ayollar boshqa mamlakatlardagi ayollarga, shuningdek, O'zbekistondagi erkaklarga qaraganda haq to'lanmaydigan ijtimoiy vazifalarga ko'proq vaqt sarflaydi (1-rasm).



1-rasm. Ayollarning mehnat bozorida ishtirok etish ko'rsatkichlari⁶. (01.01.2024-yil holatiga).

⁵ Manba: Электронная версия бюллетеня Население и общество. Центр демографии и экологии человека Института народнохозяйственного прогнозирования РАН. –Москва. №377-378. <http://esa.un.org/unpp>

⁶United Nations Development Programme. (2023). O'zbekistonda ayollar tadbirkorligi: tahlil va tavsiyalar (p. 14). <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/publications/ozbekistonda-ayollar-tadbirkorligi-tahlil-va-tavsiyalar>

Mazkur muammolarga qaramay, so'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik ko'lami sezilarli darajada kengaygan. 2024-yilda mamlakatda 5,2 millionga yaqin tadbirkor faoliyat yuritgan bo'lsa, ulardan 2,1 million nafari ayollar bo'lib, bu 2020-yilga nisbatan yetti barobar ko'proqdir. Tadbirkorlar iqtisodiyotda band bo'lgan barcha ayollarning qariyb 35 %'ini tashkil qiladi.

So'nggi yillarda, O'zbekistonda ayollar tadbirkorligiga oid islohotlar tufayli bu boradagi xalqaro ilg'or tajriba o'rtasidagi tafvotlar sezilarli darajada qisqardi.

O'zbekistonda ayollar tadbirkorligi uchun huquqiy muhit Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun" (WBL) indeksi bo'yicha ijobiy baholangan.

Xususan, 2025-yil 15-iyul sanasidagi O'zbekiston Respublikasida Ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha kodeksni joriy etish Milliy nizomi⁷, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-122-son Qarori⁸, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-329-son Qarori⁹ hamda sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarda xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilishga, ayollarni jamiyatdagi o'rni faollashtirishga e'tibor qaratilgan.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida Ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Kodeksni joriy etish Milliy nizomi "We-Finance Code" tashabbusi bugungi kunda dunyo bo'ylab 30 dan ortiq mamlakatda joriy etilmoqda. Markaziy Osiyoda O'zbekiston ushu tashabbus doirasida Milliy Nizomini ishlab chiqqan mintaqadagi dastlabki davlat sifatida e'tirof etilmoqda¹⁰.

Jahon bankining "Jahon taraqqiyoti ko'rsatkichlari" (WDI) hamda "Ayollar, biznes va qonun" (WBL) indeksi ma'lumotlar bazalaridan bevosita ayollar tadbirkorligiga doir bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Ayollar egalik qiladigan korxonalar ulushi¹¹ (01.01.2024-yil holatiga).

⁷ https://cbru.uz/upload/medialibrary/c256288446a6b2ndgfkogxt3613kxppedy/Nizon-We_fi-code_Uzbekiston.pdf

⁸ <https://lex.uz/ru/docs/6831817>

⁹ <https://lex.uz/docs/-6126565>

¹⁰ <https://t.me/centralbankuzbekistan/11826>

¹¹United Nations Development Programme. (2023). O'zbekistonda ayollar tadbirkorligi: tahlil va tavsiyalar (p. 14). <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/publications/ozbekistonda-ayollar-tadbirkorligi-tahlil-va-tavsiyalar>

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistondagi korxonalarining atigi 26 % ida korxonalar asosiy egalari bir yoki bir necha nafar ayol kishi va O'zbekistondagi (xususiy) korxonalarining 12 %ida bosh direktor yoki boshqa bosh rahbar ayol kishi hisoblanadi. O'zbekiston bu ko'rsatkich bo'yicha o'rganilgan mamlakatlar bilan raqobatlashishda oladigan darajaga erishishi zarur.

Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash sohasidagi ilg'or tajriba va tadqiqotlar natijasida bu borada quyidagi jihatlarning muhim hisoblanadi:


ayollar tadbirkorligining muvaffaqiyatini ta'minlovchi shart-sharoitlarni gender tengligi va ayollarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashishning umumiy shartlaridan ajratib bo'lmaydi;

muvaffaqiyatli ayollar tadbirkorligi shart-sharoitlarini umuman tadbirkorlikni rivojlantirish shartlaridan ajratib bo'lmaydi;

ayollar tadbirkorligining muvaffaqiyatini ta'minlovchi o'ziga xos shart-sharoitlar ko'p jihatdan ular faoliyat yuritayotgan sohalarga bog'liq;


davlat organlari tadbirkor ayollar oldida turgan huquqiy va tartibga solish bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etishda yetakchilik qilishi kerak bo'lsa-da, korxonalar va fuqarolik jamiyati tashkilotlari (FJT) ham gender masalalari integratsiyasining tijorat jihatlarida alohida ahamiyat qaratishlari kerak.

“Ayollar tadbirkorligi Global indeksi” butun dunyoda ayollar tadbirkorligi rivoji istiqbollarni o'lehab beradi (3-rasm).



3-rasm. Ayollar tadbirkorligi Global indeksida ayollar tadbirkorligini o'lehovchi asosiy omillar¹².

O'zbekistonda tadbirkorlikning muhim qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka to'g'ri keladi. Iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari ko'rsatadiki, dunyo bo'yicha eng tez rivojlanayotgan tadbirkorlik kategoriyalaridan biri ayollar tadbirkorligidir. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va jamiyatda gender tengligini ta'minlashga yordam beradi.



4-rasm. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning uzviy bog'liqligi¹³.

Yuqoridagi rasmda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishi orqali erishiladigan samaradorlik jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotiga foyda keltirishi bilan bir qatorda jamiyatda gender tengligini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Kutilayotgan ijtimoiy qarashlarga qarshi kurashish. Ba'zi toifadagi jamoat-chilik vakillari ayol rahbarlarning samarali boshqaruvchi ekanligini tan olishni xohlashmaydi. Shu bilan birga, ayollar tadbirkorligi moliyalashtirishda ta'minotning yetishmasligi natijasida kerakli mablag'ni o'la olmaslik holatlarining mavjudligi.

Kutilayotgan ijtimoiy qarashlarga qarshi kurashish. Ba'zi toifadagi jamoatchilik vakillari ayol rahbarlarning samarali boshqaruvchi ekanligini tan olishni xohlashmaydi. Shu bilan birga, ayollar tadbirkorligi moliyalashtirishda ta'minotning yetishmasligi natijasida kerakli mablag'ni o'la olmaslik holatlarining mavjudligi.

Jamoatchilik ma'qullashini kutish. Ayollar oilasi va jamoatchilik ularning biznes g'oyalarni ma'qullashini xohlashadi, ularning tashabbuslarini tanqid qilishsa, bo'lajak tadbirkor ayolning potensialiga ishonchsizlik bildirish o'la hamda biznes o'rtasida katta to'siq bo'lib hisoblanadi.

Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish, xavfsizlash. Ayollarda tadbirkorlikni boshlashda o'ziga bo'lgan ishonchning yetishmasligi oqibatida biznes g'oyalarni amalga oshirishga katta g'ov bo'lib turadi. Ko'pincha biznesda ayollarning shaxsiy fazilatlariga kam e'tibor berishlari biznes darajasini pasaytiradi.

Texnologiyalar ayollarning biznes yuritishi va biznes imkoniyatlarini topish usullariga ta'sir qilmoqda, ammo qishloq joylarda internetga kirish juda past.

¹³ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.

¹² Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.

Biznes ko'nikmalarini o'rganishda ayol tadbirkorligining muvaffaqiyatini belgilovchi individual asosiy omillar, oilani qo'llab-quvvatlash, o'ziga bo'lgan ishonch va ko'nikmalardir.

Ayollar, shuningdek, turmush o'rtog'i va ona sifatida oilalariga kam vaqt ajratganliklari sababli ayol tadbirkorlar sifatida o'zlarining rolini juda tanqidiy baholaydilar. Tadbirkor ayollar tadbirkorlik kodeksi, O'zbekiston mehnat kodeksi va normativ, buxgalteriya hisobi, marketing, kadrlar, IT-xizmatlar, biznesni boshqarish hamda iqtisodiyot sohalari bo'yicha asosiy bilimlarni egallashlari lozim. Aksariyat ayol tadbirkorlar xalqaro sheriklar, investorlar, ko'rgazmalar topishga va o'z bilim, ko'nikma hamda tajriba almashish uchun chet elga chiqish imkoniyatiga ega bo'lishga intilishadi.

Dissertatsiyaning "Ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning tahtilil" deb nomlangan ikkinchi bobida tijorat banklarida ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni zamonaviy holatining tahlili, tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari hamda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlillari amalga oshirilgan. Bob so'ngida umumlashtirilgan xulosalar shakllantirilgan.

2-jadval

Tadbirkor ayollarni qo'llab quvvatlashga hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga va aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar dinamikasi (asosiy yo'nalishlar bo'yicha mlrd. so'm¹⁴)

Asosiy yo'nalishlar	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y	2024-y
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar, jami	48 389,7	48 839,1	69 770,3	73 009,4	92 424,8
Ajratilgan mikro kreditlar	10 194,3	13 395,1	15 404,7	17 270,5	23 755,4
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida shundan:	6 078,5	7 692,2	9 893,3	9 198,2	6 841,4
Aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun	3 602,1	6 170,7	9 094,4	9 864,3	6 346,5
Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga	5 959,8	16 309,5	11 513,3	10 134,1	33 582,9
Tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga	4 895,9	6 397,7	9 402,5	13 313,6	16 868,6
Xorijiy kredit liniyalari hisobidan (mln. AQSh dollari)	2 139,0	1 407,0	1 531,3	1 150,7	1 149,7

O'zbekistonda Markaziy bank tomonidan belgilangan foiz stavkasi ayni paytda 14 %ni tashkil etadi. Qozog'istonda iyul oyi holatiga ko'ra, foiz stavkasi 16,75 %. Boshqa qo'shni mamlakatlar bilan solishtirsak bu ko'rsatkich biroz yuqoriroq.

Masalan, Qirg'izistonda foiz stavkasi may oyidan buyon o'zgarishsiz 13 % miqdorida, Tojikistonda 10% turibdi.

Dunyoda eng past ko'rsatkichdagi foiz stavkasi Yaponiyaga tegishli: 0,1%. Iqtisodiyoti qudratli bo'lgan mamlakatlar – Xitoyda foiz stavkasi 3,55; AQShda 5,25 etib belgilangan.

Jadval ma'lumotlari tahlilidan mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan tadbirkor ayollarni qo'llab quvvatlashga ajratilgan kreditlar 2020-yilda 4 895,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich, qariyb to'rt barabarga ortib 16 868,6 mlrd. so'mga yetgan. Shu bilan birga, 2024-yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar jami 92 424,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2020-yildagi 48 389,7 mlrd. so'mga nisbatan qariyb ikki barabarga ortgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son qaroriga muvofiq, 2023-yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholi va tadbirkorlik subyektlarining loyihalarni moliyalashtirish uchun jami 13 trln. so'm, shundan 2,8 trln. so'm "Mikrokreditbank" ATB, AT Xalq banki va "Agrobank" ATB resurslari hisobidan yo'naltirilgan va foiz stavkasi 14% etib belgilangan.

3-jadval

AT "Xalq banki" tomonidan xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hisobidan va boshqa Davlat dasturlari ijrosi bo'yicha ajratilgan imtiyozli kreditlar¹⁵

Yo'nalishlar nomi	2022		2023		2024	
	Yaratilgan ishchi o'rni (ta)	Loyihalar summasi (mlrd.)	Loyihalar soni (ta)	Loyihalar summasi	Loyihalar soni (ta)	Loyihalar summasi
1. "Har bir oila – tadbirkor"	165866	3623	176672	3,6 trln.	139 510	2,6 trln.
2. Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jang'armasi	4199	41	8720	236,3 trln.	8 405	200 mlrd.
3. Hunarmand-chilikni rivojlantirish	4826	136	64	4,0 mlrd.	9	260 mln.
4. Mahalliy hokimliklar huzuridagi jang'armalar	78	6,4	37	7,8 mlrd.	11	3 mlrd.
5. Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hisobidan	1025	48,7	12111	153,2	80326	1,2 trln
Jami imtiyozli kreditlar	175994	3896	196 604	4 trln.	228 261	4,4

¹⁵ Jadval muallif tomonidan Xalq bankining tegishli ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.

¹⁴ Jadval O'z.Res.MB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

5-jadval
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan ayollar tadbirkorligi va kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar¹⁷

Yo'nalish nomi	2022			2023			2024		
	loyihalar soni (ta)	loyihalar summasi (mlrd.)							
Ayollar tadbirkorligi va "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks Dasturi doirasida	171	482,3	433	146,5	1 421	151,0			

2022–2024-yillar davomida “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan ayollar tadbirkorligi va kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratilgan kreditlar dinamikasi bank faoliyatida sezilarli o'zgarishlar bo'lganini ko'rsatadi. Dastlab, moliyalashtirilgan loyihalar soni yildan yilga keskin o'sib borgan. Agar 2022 yilda 171 ta loyiha qo'llab-quvvatlangan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 433 taga yetib, qariyb 2,5 baravar oshgan. 2024-yilda esa moliyalashtirilgan loyihalar soni 1 421 taga yetgan bo'lib, 2022-yilga nisbatan 8 baravar, 2023-yilga nisbatan esa 3 baravar ko'paygan. Bu holat bankning ayollar tadbirkorligi va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyatini keng miqyosda kuchaytirganini anglatadi.

Biroq ajratilgan kredit summalarning o'zgarishi loyihalar soni kabi barqaror o'sishni ko'rsatmaydi. 2022-yilda ushbu yo'nalish bo'yicha 482,3 mlrd. so'm kredit ajratilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich keskin kamayib, 146,5 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2024-yilda esa kredit summasi deyarli o'zgarmay, 151 mlrd. so'm atrofida bo'lgan. Bu shuni anglatadiki, loyihalar soni ko'p bo'lishiga qaramay, ularga ajratilayotgan mablag'larning o'rtacha hajmi ancha kichik bo'lgan.

O'rtacha bir loyiha uchun to'g'ri keladigan kredit miqdori ham keskin kamayib borgan. 2022-yilda bir loyiha o'rtacha 2,8 mlrd. so'm bilan moliyalashtirilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 0,34 mlrd. so'mga, 2024-yilda esa atigi 0,11 mlrd. so'mga tushgan. Bu holat bankning strategiyasi ko'proq miqdordagi kichik va mikro loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilganini, yirik kreditlar esa kamayganini ko'rsatadi.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning YIMdagi ulushi 70–75 %ni tashkil etadi. Iqtisodiyotda band bo'lgan aholining asosiy qismi ham shu sohada band bo'lib, ular Yaponiyada 70 %ni, AQShda 80 %dan ko'progini tashkil qiladi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining 90 %gacha bo'lgan qismi tijorat banklarining kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi¹⁸.

¹⁷ Jadval muallif tomonidan <https://mkbank.uz/uz/family-programs/> ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.

¹⁸ O'zbeq epepat yenyi. 3ana.uz.uz erpa. www.export.by/act./doc@mode, <http://aftershock.news>; Politeconomica. ru/feb2013/malyj - biznes.; <http://aftershock.news>.

Bundan tashqari “Ayollarga ko'mak” (Xalq bankida 18%), “Bir million dasturchi” doirasida 21%lik kredit turlari mavjud. Qo'shimi Qirg'iziston bilan taqqoslasak “Ay” bankda jismoniy shaxslar uchun hukumat dasturlari bo'yicha kreditlar 0 %dan boshlab eng yuqorisi 6 %ni tashkil etadi. Tojikistonda hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 10 %lik kredit turi mavjud. Yevropa mamlakatlarida esa, masalan, Italiyada kreditning o'rtacha foizi bizning imtiyozli kreditlardan 5-6 barobar arzon – 2,26%.

Xalq banki 2024-yilda dasturlar doirasida 228 261 ta mijozga 4 trln. so'mlik imtiyozli kredit ajratildi. Natijada, 228 261 nafar aholi bandligi ta'minlandi. “Har bir oila – tadbirkor” dastur doirasida 139 510 ta loyihaga 2,6 trln. so'mlik imtiyozli kredit ajratilib 139 510 nafar aholi bandligi ta'minlangan. Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan 8 405 ta loyihaga 200 mlrd. so'mlik imtiyozli kredit ajratilib, 8 405 nafar aholi bandligi ta'minlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 2025-yilda 14-martdagi PQ-103-son qaroriga ko'ra, Xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va ularning loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish maqsadida 2025-yilda xotin-qizlar loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha ravishda 200 mln. AQSh dollari yo'naltirilishi belgilangan.

“Mikrokreditbank” ATB ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga imtiyozli kreditlar ajratadi. “Mikrokreditbank” ATB oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 77 ming 752 nafar xotin-qizga 1 trillion 175 milliard so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratgan.

4-jadval
“Mikrokreditbank” ATB tomonidan ayollar tadbirkorligi va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari asosida ajratilgan kreditlar¹⁶

Yo'nalish nomi	2022		2023		2024	
	loyihalar summasi (mlrd.)	Yaratilgan ishchi o'rni (ta)	loyihalar summasi mlrd.	Yaratilgan ishchi o'rni (ta)	loyihalar summasi (mlrd.)	Yaratilgan ishchi o'rni (ta)
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari	2 500	100 mingga yaqin	1 950	100 mingga yaqin	2167	100 mingga yaqin

Bu mablag'lar hisobidan 78 ming nafardan ortiq xotin-qiz ish bilan ta'minlangan.

Jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishi tijorat banklari tomonidan kreditlash hisoblanadi.

¹⁶ Jadval muallif tomonidan <https://mkbank.uz/uz/family-programs/> ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.

6-jadval

Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribalarini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari¹⁹


Mamlakatlar AQSh	Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha imkoniyatlar
Yaponiya	- ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'plab notijorat tashkilotlarning mavjudligi; - imtiyoz berishda xodimlarning gender tarkibi ham hisobga olinadi. - muvaffaqiyat qozongan tadbirkor ayollarning ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xususiy tashabbuslari qo'llab-quvvatlanadi; - onlayn konsultatsiyalar rivojlanganligi.
Xitoy	- ayollar tadbirkorligini kasanachilik bilan uyg'unligi tashabbuskorlarda ham samarali va innovatsion yondashuv shakllangan.
Malayziya	- yolg'iz onalar uchun maxsus tadbirkorlik dasturlari mavjudligi; - ayollar tadbirkorligi uchun kredit olishda kafolat beruvchi korporatsiya faolligi.
Rossiya	-tadbirkor ayollar o'rtasida qo'shimcha ta'lim olish imkoniyati mavjudligi; -ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda asosiy resurslardan foydalanishni ta'minlash.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda jahonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Shunga qaramay, jahon mamlakatlarining 45 %ida ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini cheklovchi qonunlar mavjud.

Yuqoridagi jadvalda asosan mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy holatga birmuncha yaqin bo'lgan Osiyo va MDX mamlakatlari tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari o'rganildi. Yevropa mamlakatlari yoritilmaganligiga sabab mazkur mamlakatlardagi kuchli ijtimoiy himoya, kam farzandlilik, munosib mehnat sharoitlari va to'liqsiz bandlikka keng imkoniyatlar mavjudligi kabi O'zbekistondagi holatdan farq qiluvchi jihatlari asos bo'ldi.

Ayollar tadbirkorligida moliyalashtirishda biz uch asosiy omillar tizimini taklif qilamiz. Fikrimizcha va bizning taklifimiz bo'yicha, ayollar tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq omillarga ularning yoshi (bu ko'rsatkich so'rovnomada inobatga olingan), ma'lumoti (bu ko'rsatkich so'rovnomada inobatga olingan), oilaviy holati, tadbirkorlik tajribasi (bu ko'rsatkich so'rovnomada inobatga olingan), tadbirkorlik bo'yicha turli treyninglarda qatnashganligi (bu ko'rsatkich so'rovnomada inobatga olingan), faoliyat sohasi (bu ko'rsatkich so'rovnomada inobatga olingan)

Bank xizmatlari va moliyalashtirish bilan bog'liq omillarga ayollar tadbirkorligi uchun kredit miqdori, foiz stavkasi, kafilliklardan iborat.



5-rasm. Ayol tadbirkorligini moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillar tizimi²⁰

Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarga davlat tomonidan ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlanishi, ishsizlik, Markaziy bank stavkasi, eksport qilish jarayoni, valyuta ayirboshlash kurslarini keltirishimiz mumkin.

Aytishimiz kerakki, keltirilgan omil belgilarning barchasi erkak va ayol tadbirkorlari uchun, ya'ni barcha uchun bir xil, lekin ayrim holatda ayol tadbirkorlar olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytarishi, ulardan to'g'ri foydalanishi, shuningdek, kafil va garov masalasida kamroq imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin, bizning maqsadimiz ayol tadbirkorligini moliyalashtirish orqali yanada ragbatlantirish va bu orqali yangi ish joylari yaratilishi, ayol tadbirkorlarining jamiyada o'z mavqeyiga ega bo'lib, bozor uchun sifatli va hamyonbop mahsulot hamda xizmatlarni amalga oshirilishi tarafdorimiz.

Ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishda quyidagi ko'p omilli logit modelini taklif qilamiz:

$$Y(=1) = \beta_0 + \beta_0 X_1 + \dots + \beta_0 X_n$$

Asosiy natijaviy belgi, ya'ni $Y(=1)$ bu yerda ayol tadbirkorlarining o'z ishdan voz kechishi haqidagi ya'ni ishini to'xtatish yoki muvaffaqiyatli davom ettirish haqidagi fikridir. 1 bu yerda ayollarning o'z tadbirkorligini davom ettirishini, kengaytirishini ifodalaydi. 0 esa aksincha fikrga teng hisoblanadi.

So'rovnomana natijalaridan foydalanib to'rtta model ishlab chiqilib, ularning tahlili asosida taklif va xulosalar shakllantirildi.

Ko'p omilli tahlil jarayonida ayollar tadbirkorligiga oid so'rovnomana ma'lumotlari oldindan to'g'ri qayta ishlanib, kategorik o'zgaruvchilar "dummy" formatiga o'tkazildi, yetishmayotgan qiymatlar orqali to'ldirildi va kerak bo'lsa normallashtirildi. Shu ma'lumotlar asosida to'rtta model – ko'p omilli logit (Multinomial Logistic Regression), Random Forest, K-najot qo'shnilar (KNN) va Qaror daraxti (Decision Tree) – qurildi. Har bir model "tadbirkorlik bilan shug'ullanmasmi?" kabi maqsadli o'zgaruvchini bashorat qilish uchun mo'ljallandi va preduktorlar sifatida respondentlarning yoshi, ma'lumoti, moliyaviy savodxonligi, kredit olish tajribasi va treninglarda qatnashganligi kabi 15 ta omil ishlatildi. Quyidagi to'rtta model ham tekshirildi va ishonchligi aniqlandi.

²⁰ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.

¹⁹ Iqtisodiy adabiyot manbalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

7-jadval

Ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishda quyidagi ko'p omilli logit modeli

Tadbirkorlik faoliyatini davom ettirish	1-model	2-model	3-model	4-model
Ayol tadbirkorligining ma'lumoti	0.7			
Ayol tadbirkorligining yoshi		0.8		
Qaysi sohada tadbirkorlik bilan shug'ullanasiz?		0.5		
Tadbirkorlik faoliyatini davom ettirish uchun shug'ullanasiz?			0.7	
Ishchilar soni	0.6			
Biznes yutishda qo'llab-quvvatlanayotganligi				0.3
Odatda biznesingizni qanday moliyalashtirasiz?	0.5			
Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish uchun bankdan kredit olganmisiz?		0.4		0.6
Tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun treninglarda malaka oshirganligi?	0.8			
Kredit olgan bo'lsangiz qancha miqdorda va nech yillik kredit olgansiz?			0.4	
Kredit foizini doimo o'z vaqtida qaytarish odatingiz bormi yoki nimadir to'siq bo'ladi?			0.8	
Si tadbirkor ayollar uyushmasi yoki tashkilotiga a'zomisiz?		0.7		
Tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash dasturlaridan qoniqasizmi?				0.4
Sizningcha tadbirkor ayollarni moliyalashtirishda gender farqi bormi?			0.5	
Sizningcha kreditning afzal yoki salbiy tomonlari				0.6

Statistika va moslik mezonlari bo'yicha baholash Logit modelda Likelihood Ratio testi $\rightarrow p < 0,01$; Nagelkerke $R^2 \approx 0,42$, hamda har bir koeffitsiyentning p-qiyamati 0,05 dan kichikligi uning ma'lumotlarga yaxshi mos kelishini tasdiqlaydi. Random Forest uchun OOB (out-of-bag) xatosi $\approx 12\%$, eng muhim besh omil aniqligi $> 0,6$; bu modelning barqarorligini ko'rsatadi. KNN modeli kross-validatsiyada o'rtacha aniqlik $\approx 80\%$, f1-score $\approx 0,78$ ni ko'rsatdi. Qaror daraxti esa chuqurligi 5 bo'lganda confusion matrix bo'yicha 82% to'g'ri bashorat (accuracy) va $AUC \approx 0,81$ natija berdi. Shunday qilib, hamma to'rt model moslik bo'yicha qoniqarli darajada ishlashini namoyish etdi.

Validatsiya, xatolar va yakuniy xulosa modellarni validatsiya qilish uchun 5-fold kross-validatsiya, ROC egri chiziq lari va confusion matrix tahlillari qo'llanildi. Har bir modelning sensitivity (haqiqiy musbatlarni aniqlash) va specificity (haqiqiy manfiylarni ajratish) 0,75–0,88 oralig'ida bo'lib, bu ularning umumlashuvchi kuchini tasdiqlaydi. Shuningdek, kalibratsiya egri chiziq lari modellarning bashoratlarini real ehtimolliklarga yaqin ekanini ko'rsatdi. Natijada, yuqoridagi to'rtta model ham tekshirildi va ishonchligi aniqlandi, ya'ni ular tadbirkor ayollarning moliyalashtirishga oid xatti-harakatlarini ishonchli bashorat qilishga qodir. Bu esa keyingi strategik qarorlar qabul qilish va siyosat ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Model natijalariga ko'ra, ayol tadbirkorning ma'lumoti (0,7), ishchilar soni (0,6),

moliyalashtirish manbalari (0,5) va malaka oshirganlik darajasi (0,8) tadbirkorlik faoliyatining davomiyligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu holat "inson kapitali" nazariyasiga to'la mos keladi. Gari Bekker ta'kidlaganidek, bilim va ko'nikma insonning iqtisodiy faoliyatidagi ishtirokini aniqlovchi asosiy omillardandir. Ayniqsa, malaka oshirish ko'rsatkichi eng yuqori qiymatda bo'lib, bu ayollar biznesni zamonaviy yondashuvlar bilan yuritishga intilayotganini ko'rsatadi. Ishchilar soni esa biznes miqyosining va tashkiliy salohiyatning proksi indikatoridir.

Model natijalari asosida quyidagi muhim takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, ayollar uchun mo'ljallangan doimiy tadbirkorlik treninglarini hududiy darajada tashkil qilish lozim. Ayniqsa, yangi boshlayotgan ayollar uchun boshlang'ich kapitalni boshqarish, soliq rejallashtirish va raqamli savodxonlik kabi yo'nalishlar bo'yicha modullar ishlab chiqilishi kerak. Ikkinchidan, ayollar ishchi yollash orqali nafaqat o'z biznesining ijtimoiy ta'sir doirasini kengaytirmoqda, balki ayollarni ish bilan ta'minlashda ham faol ishtirok etmoqda. Shu bois, ish o'rnlari yaratgan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari berish tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilganda, birinchi model asosida ayol tadbirkorlar orasida bilim va ko'nikmalarga asoslangan strategik yondashuv mavjudligi kuzatildi. Ayniqsa, malaka oshirish va ma'lumot darajasi ularning o'z biznesini davom ettirish qaroriga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kelgusida davlat va nodavlat sektorlar hamkorligida ayollar uchun bilim-infratuzilmalarini rivojlantirish bo'yicha kompleks yondashuv talab etiladi.

Ikkinchi model bo'yicha, ayolning yoshi (0,8), faoliyat sohasi (0,5), bank krediti olganligi (0,4) va ayollar uyushmasiga a'zolik (0,7) kabi omillar kuchli ta'sir etuvchi faktorlar sifatida aniqlangan. Yoshi kattaroq bo'lgan ayollar odatda ko'proq tajribaga ega bo'lganligi sababli, kredit olishda va biznes yuritishda ehtiyoqkorlik bilan yondashadilar. Shu bilan birga, uyushma va tarmoqda qatnashuv moliyaviy resurslar va maslahatlarini olishda ijobiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Mark Granovetterning "ijtimoiy tarmoq nazariyasi"ga ko'ra, zaif aloqalar (ya'ni uyushmadagi tanishlar) ko'proq imkoniyatlar eshigini ochadi.

Tahlillardan kelib chiqib, ayollar uyushmalarining institutsional rolini kuchaytirish zarur. Masalan, har bir tuman yoki shaharda faoliyat yuritayotgan ayollar uchun mahalliy tadbirkorlar klublarini tashkil etish va bu klublar orqali banklar bilan aloqalarni o'rnatishga ko'maklashish mumkin. Shuningdek, ayollar qaysi sohada tadbirkorlik qilayotganiga qarab sohaga xos moliyalashtirish paketlari ishlab chiqilishi lozim, masalan, qishloq xo'jaligida ishlayotgan ayol uchun uzoq muddatli kredit, xizmat ko'rsatishda esa tezkor aylanma mablag' kreditlari.

Model shuni ko'rsatmoqdaki, ayollar o'rtasidagi ijtimoiy faollik va tarmoqlarda qatnashish darajasi ularning moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish darajasiga kuchli ta'sir qiladi. Demak, ijtimoiy kapitalni moliyaviy kapitalga aylantirish yo'nalishlarini ishlab chiqish va qo'llash ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishda samarali strategiya bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi model Mazkur modelda tajriba yillari (0,7), kredit hajmi/muddati (0,4), kreditni vaqtda to'lash (0,8) va gender farqi haqidagi qarashlar (0,5) asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida ajralib turadi. Ayollar o'z kreditini o'z vaqtda to'lashga bo'lgan intizomiy orqali banklar uchun ishonchli mijoz sifatida tanilmoqda. Bu natija mikroqarzarlar haqidagi Nobel mukofoti sovrindori Muhammad Yunusning

mikromoliya modeliga yaqinlashadi, u ayollarning moliyaviy mas'uliyatini yuqori baholangan. Gender farqlari esa hali-hanuz ayollarning moliyalashtirishga nisbatan xavotirlardan dalolat beradi.

Ayollar uchun kredit olganidan keyin ham moliyaviy monitoring xizmatlarini yo'lg'a qo'yish lozim. Kreditni to'lash intizomini rag'batlantirish maqsadida, "sodiq mijoz" dasturlari tashkil etilishi mumkin – bu dasturlar orqali vaqtida to'lov qilganlarga kelgusi kreditlar uchun pastroq foiz stavkasi taklif etiladi. Gender farqlari borasidagi qarashlarni kamaytirish uchun esa banklar tomonidan ayollar uchun alohida kredit maslahatchilari (masalan, ayol mutaxassislar) bilan xizmat ko'rsatish amaliyotini yo'lg'a qo'yish tavsiya etiladi.

Model natijalaridan kelib chiqadigan eng muhim xulosa – ayollar moliyaviy intizomi jihatidan ishonchi auditoriyadir. Shunday ekan, banklar va moliyaviy institutlar uchun ayollarni moliyalashtirish alohida segment sifatida ko'rib chiqilishi nafaqat ijtimoiy tenglik, balki iqtisodiy barqarorlikka ham xizmat qiladi.

To'rtinchi modelda qo'llab-quvvatlov mavjudligi (0,3), davlat dasturlaridan qoniqish (0,4), kredit olish tajribasi (0,6) va kredit afzallik/salbiy tomonlari haqidagi fikr (0,6) tadbirkorlikni davom ettirish ehtimoliga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida aniqlangan. Ayollar tadbirkorligida institutsional yordam – grantlar, maslahat xizmatlari, soliq imtiyozlari – hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, moliyaviy xizmatlar sifatining qoniqlari bo'lishi ularga nisbatan ishonchni oshiradi, bu esa ajrimlar va faoliyatni to'xtatish ehtimolini kamaytiradi.

Tahlilga ko'ra, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar haqida ma'lumot yetkazish darajasi sust bo'lishi mumkin. Shu bois, interaktiv axborot platformalari (mobil ilova, chat-bot, hududiy platformalar) orqali dasturlar va grantlar haqida ochiq va tushunarli axborot berilishi lozim. Shuningdek, kredit xizmatlari borasidagi salbiy tajribalarni tahlil qilib, "mijozni himoya qiluvchi moliyaviy paketlar" – sug'urta, foiz stavkasini kafolatlovchi shartnomalar – joriy etilishi tavsiya etiladi.

Ushbu modelning asosiy xulosasi shuki, ayollar moliyalashtirishga doir qarorlarini atrof-muhitdagi ishonch, yordam va tajriba asosida qabul qilmoqda. Shu bois, ayollarni qo'llab-quvvatlovchi ekotizimni kompleks tarzda rivojlantirish, ya'ni huquqiy, institutsional va psixologik jihatlardan mustahkamlash zarur.

Shunday qilib, ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishda logit, probit va tobit modellarning qo'llanishi, mavjud vaziyatni statistik asosda tushunishga va kelgusida qanday omillarni rivojlantirish zarurligini belgilashda muhim vositalar hisoblanadi. Yangi tadbirkorlar uchun malaka oshirish va o'qitish, banklar tomonidan ayol tadbirkorlar uchun maxsus xizmatlar va moliyaviy maslahatlar ko'rsatish, moliyaviy monitoring tizimlarini yo'lg'a qo'yish kabi takliflar ayol tadbirkorlikni rivojlantirish uchun strategik yondashuv bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning "O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari" deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish bilan bog'liq muammolar aniqlangan va ayol tadbirkorlarni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni rivojlantirish tendensiyalari hamda O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari yuzasidan takliflar keltirilgan. Bob so'ngida umumlashtirilgan xulosalar shakllan-tirilgan.

Dunyoda 2024-yilda bir kishi boshiga kuniga 2,15 dollardan kam daromad bilan belgilangan global ekstremal qashshoqlik darajasi ayollarda 9,8%ni, erkaklarda esa 9,1%ni tashkil etdi. Umuman olganda, erkaklarga nisbatan 24,3 millionga ko'proq ayollar o'ta qashshoqlikda yashaydilar. 2030-yilga kelib, ayollarning 8,1%i (erkaklarning 7,6%ig'a nisbatan) o'ta qashshoqlikda qolib, Barqaror rivojlanish maqsadiga erisha olmaydi. Agar bu tendensiya davom etsa, ayollar va qizlar uchun o'ta qashshoqlikka barham berish uchun yana 137 yil kerak bo'ladi. 3,65 va 6,85 dollarlik xalqaro qashshoqlik chegaralarini hisobga olsak, vaziyat bundan ham yomonroq, 2024-yilda ayollarning 25,4%i va 47,5%i kambag'al uy xo'jaliklarida yashaydi va 2030-yilga kelib juda oz o'zgarish kutilmoqda²¹. BMT doirasidagi muammolardan biri bo'lgan gender tengligi, ayollarni qashshoqlikdan chiqarish masalalariga e'tibor qaratilmoqda. Shunday ekan ayollarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

YUNESKO va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan jahon miqyosida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish reytingi "Ayollar tadbirkorligining Mastercard indeksi" (Mastercard Index of Women Entrepreneurs – MIWE) orqali baholanadi. Ushbu indeks tarkibiy jihatdan 3 komponent, 12 indikator va 25 ta ko'rsatkichlardan tashkil topgan.

8-jadval Ayollar tadbirkorligining Mastercard indeksi natijalari orqali rivojlanishi bo'yicha guruhlash ko'rsatkichlari²²


Ayollar tadbirkorligining rivojlanishi			Muallif taklifi
Daromad darajasi bo'yicha	Rivojlanish bosqichi bo'yicha	MIWE ko'rsatkichi	
yuqori daromadli	innovatsiyaga asoslangan (innovation)	0,76-1	0,86-1,00
o'rtacha yuqori daromadli	samaradorlikka asoslangan(intensiv)	0,51-0,75	0,70-0,85
quyi o'rtacha daromadli	innovatsion-intensiv rivojlanish	0,26-0,50	0,55-0,69
quyi daromadli	qo'shimcha omillarga asoslangan (ekstensiv)	0-0,25	0-0,54

Ushbu hisoblash amaliyoti ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni har tomonlama qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Bunda mamlakatda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ayol tadbirkorlarning moliyaviy va boshqaruv savodxonligi darajasi va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash shart-sharoitlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni umumlashtirib ayollar tadbirkorligini rivojlantirish holati baholanadi. Tahlil natijalari ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni daromad darajasi va rivojlantirish bosqichi bo'yicha guruhlarga ajratish imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish masalalarida va tadbirkor ayollar dush kelayotgan ba'zi tijorat to'siqlari hamda muammolar mavjud.

²¹ <https://www.unwomen.org/en/resources/gender-snapshot/sdg-1>

²² Mastercard Index of Women Entrepreneurs 2019.75p. <https://newsroom.mastercard.com/wp-content/uploads/2019/11/Mastercard-Index-of-Women-Entrepreneurs-2019.pdf>, asosida ishlab chiqilgan.



6-rasm. Ayollarni o'z biznesini yuritishdagi asosiy to'siqlar²³.

Jumladan, ayol-qizlarning moliyaviy savodxonligining pastligi, moliyalashtirishda ta'minotning yetishmasligi, biznes rejalarini puxta ishlab chiqishda tajribaning yetishmasligi va boshqalar (6-rasm).

Tadbirkor ayollar duch kelayotgan ba'zi tijorat to'siqlariga, bozor tadqiqotlari ma'lumotlarining o'tkazilmasligi, malakali ishchi kuchi yetishmasligi, marketing vositalari va texnologiyalardan, shuningdek, qarz va bank kreditlardan foydalanish imkoniyati bilan bog'liq muammolari misol bo'la oladi.

O'zbekiston banklarining ayollar tadbirkorligini kreditlashni oshirish uchun bozor va boshqaruv sohasidagi islohotlarni amalga oshirishni davom ettirish zarur (7-rasm).




7-rasm. Tadbirkor ayollar tijorat faoliyati bilan bog'liq muammolar²⁴.

Tadqiqot ishimiz yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomada tadbirkor ayollar duch kelayotgan ba'zi tijorat to'siqlarini "qiyyin" yoki "juda qiyyin", "neytral" hamda "oson" yoki "juda oson" kategoriyalariga bo'lib o'rgandik (8-rasm).

²³ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.
²⁴ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.

Kraudfanding turlari




8-rasm. Ayollarni tadbirkorligini kraudfanding usuli orqali moliyalashtirishni takomillashtirish²⁵.

Olingan natijaga ko'ra, so'rovda qatnashgan respondentlarning 45% i kredit yoki qarz olishdagi muammolarni "qiyyin" yoki "juda qiyyin" deb ko'rsatgan bo'lsa, 62% i ayni paytda biznes ehtiyojlari uchun yetarli mablag'ga ega ekanini bildirgan.

Ushbu natija ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish uchun boshqa (bankdan tashqari) muqobil moliyalashtirish manbalarining (masalan, taqsimlanmagan foyda, grantlar), shuningdek, ayollarni tadbirkorligini kraudfanding usuli orqali moliyalashtirishni muhimligini ko'rsatadi.

Bu moliyaviy mablag' yo'naltirgan aholi uchun qanday qulaylik yaratadi, degan savol tug'iladi. Biz taklif etayotgan kraudfandingni turlarga bo'ldik va mijoz o'zi hohlagan loyihaga kraudfanding turini tanlab sarmoya kiritishi mumkin.



9-rasm. Ayollarni tadbirkorligini kraudfanding usuli orqali moliyalashtirish usuli²⁶.

Xayriya kraudfanding. Notijorat maqsadlarda, masalan, muhtojlarga yordam berish yoki xayriya tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash uchun pul yig'ish uchun foydalaniladi.

Aksiyadorlik kraudfanding. Bunday holda, homiyalar o'z sarmoyasi evaziga kompaniyaning ulushini oladi. Umuman olganda, bu aksiyalarni sotib olishga o'xshaydi.

Kollending. Bu loyihalarni kreditlash mexanizmi bo'lib, ishtirokchilar pulni xayriya qilmasdan, balki foiz evaziga qarzga berishadi.


Kraudfandingni mukofotlash. Ishirokchilar o'z depozitlari uchun bonuslarni

²⁵ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.
²⁶ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.

oladigan biznesdagi eng keng tarqalgan usul.

Ayollarni tadbirkorligini kraudfanding usuli orqali moliyalashtirishda yuqoridagi xayriya kraudfandingi, aksiyadorlik kraudfandingi, kollending va kraudfandingni mukofotlash usullaridan foydalanishda muqobil mexanizmlar orqali amalga oshirish ijobiy natija beradi. Maxsus platformalar orqali ma'lumotlar berish va mijozlarni jalb etish uchun samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, loyiha uchun kerakli mablag'ni aniqlash kraudfandingning qaysi turini qo'llash lozimligini va mablag'larni to'plashda zamonaviy usullardan ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta xabarnomalari, bloglar va boshqa kanallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishning yana bir usuli bu aktivlarni sekyuritizatsiyalash hisoblanadi. Bank aktivlarini sekyuritizatsiyalashning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:



10-rasm. Ayollarni tadbirkorligini aktivlarni sekyuritizatsiyalash orqali moliyalashtirish²⁷.

1. Bitimning asosiy maqsadi moliya aktivlari bo'yicha bo'lajak pul oqimlarini uchinchi shaxsga berish.
2. Bitimning asosimi tashkil etuvchi aktiv doimiy va prognoz qilinadigan pul oqimini hosil qiladi.
3. Pul oqimlari uchunchi shaxslar oldida qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi majburiyatlar ta'minoti hisoblanadi.

Ushbu usuli qo'llash natijasida kredit operatsiyalarning o'ziga xos "taqsimot" ro'y beradi: bank kredit berishning tashabbuskori sifatida namoyon bo'ladi (u ko'pincha sudlar bo'yicha xizmat ko'rsatish vazifalarini bajarishni davom ettiradi), kompaniya va xususiy shaxslar esa kredit shartnomalar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni sotib oladi va yakuniy investorlarga aylanadi.

XULOSA

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tijorat banklari tomonidan ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Hozirgi kunda jahon miqyosida davom etayotgan muhim jarayonlardan biri bo'lib, xotin-qizlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi, xususan, klaster usulidagi ayollar biznesiga alohida e'tibor berilayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta biznesning YIMdagi ulushi sezilarli ortayotgani e'tirof etilmoqda.

2. Olib borilgan kuzatuvlarimiz va izlanishlarimiz asosida keyingi yillarda davlatimiz rahbariyati tomonidan ayollar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va gender tengligini ta'minlash uchun qonunchilik negizini mustahkamlash, shuningdek, institutsional bazani shakllantirish borasida muhim huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinganligini guvohi bo'ldik.

3. Iqtisodchi olimlar ayollar tadbirkorligiga ta'sir etuvchi omillarni institutsional, ijtimoiy-madaniy va individual-shaxsiy guruhlariga, shuningdek, ichki va tashqi omillarga bo'lib o'rganishgan. Bunda barcha omillar bir nuqtada – motivatsiyada kesishadi, ya'ni keng qamrovli omillar natijasida ayollarning tadbirkorlik qilishga ishtiyoqini so'ndirishi bilan birga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Xorijiy iqtisodchi olimlarning adabiyotlarni o'rganish holda ayollar tadbirkorligiga oid quyidagi o'ziga xosliklarni borligi aniqlandi: o'z-o'zini band qilish shakliga moyillik; ishchi kuchiga kamroq ehtiyoj; muvozanatlashgan ish vaqti; turli sohalarga og'uvchanlik; nisbatan kichikroq hajm; nisbatan sustroq o'sish; faoliyat davomiyligi qisqaroqligi; kamroq iqtisodiy foyda; ayollarga xos faoliyat turlarida keng tarqalganlik.

4. Jahonda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga juda katta e'tibor qaratiladi. Aksariyat hollarda rivojlangan mamlakatlardagi aholida tadbirkorlar ulushi juda kam, ijtimoiy ta'minot yaxshi yo'lga qo'yilgani uchun ayollarning tadbirkorlik qilish xohishi nisbatan past, ammo rivojlanayotgan va daromadi past o'lkalarda tadbirkor deyarli yarim aholimi tashkil etar ekan va ayman ayollar kambag'allikdan chiqish uchun tadbirkorlikka, xususan, norasmiy faoliyat yuritishga moyil bo'lar ekan. Odatda, ayollar kichik va o'rta biznes subyekti sifatida ushbu mamlakat fuqarosi bo'lgan holda va faoliyatini mazkur hududda amalga oshirishi sharti bilan davlatning faol qo'llab-quvvatlashidan foydalanadi. Bunda davlat yordami xususiy tashabbuslar va jamiyatning ijobiy munosabati bilan uyg'unlashgan holdagina samara berishi kuzatilgan.

5. Tijorat banklari tomonidan ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni shakllantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida me'yoriy muhitni yaxshilash borasida doimiy tartibda samarali islohotlarni olib borish zarur. Davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirish ayollar tadbirkorligini tijorat banklari tomonidan moliyalashtirish rivojlantirishning asosiy muhim omillaridan biridir. Bunda, bank kreditlari, davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan foydalanish, soliqlar tortish, lizingga oid qonunchilik hujjatlarining bog'liqligi va bir-biriga zid kelmasligini ta'minlash zarur. Davlatning moliyaviy yordamini mustahkamlash ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishning asosiy va zarur sharti hisoblanadi.

6. Hozirgi vaqtda tijorat banklari tomonidan ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni shakllantirishda samaradorlik me'yorlarini belgilangan aniq ko'rsatkichlarining mavjud emasligi kelgusida ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishdagi noaniqlikni oshiradi.

7. Tijorat banklari tomonidan ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha asosiy faoliyatni quyidagi yo'nalishlarda olib borish zarur.

8. Respublikamizda oilaviy tadbirkorlik, tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga ajratilgan kreditlarning qaytishidagi muammolar, garov ta'minotining yetishmasligi kabi

²⁷ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.

muammolarning mavjudligi bu masalaning dolzarbligini asoslab beradi, shuning uchun bu borada ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni kompleks qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlarni davom ettirish zarur.

Shuni ham alohida ta'kidlash zarurki, bugungi kunda yangi texnologiya va innovatsiyalarga asoslangan, sifatli hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga moslashgan o'rta biznes bo'g'ida faoliyat yuritayotgan tadbirkor ayollarni faoliyatini moyilashirish hamda qo'llab-quvvatlash instrumentlari yetarli emas.

9. Hozirda moliya bozorida resurslarning yuqori foiz stavkalari saqlanib qolayotgan sharoitda kichik biznes subyektlari hamda xotin-qizlarning tadbirkorlik loyihalarni moyilashirishning yangicha va muqobil instrumentlarini yaratishga, xususan, tadbirkorlik loyihalarga ulush kiritish va xizmatlar ipotekasini joriy etishga, kafillik yordamini taqdim etishni kengaytirishga ehtiyoji ortgan. Shuning uchun mahalliy va xalqaro kapital bozorlarida moliyaviy resurslarni, shu jumladan, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag'larini jalb qilish zarur.

10. Tadbirkor ayollarning eng yaxshi loyihalari bo'yicha tanlovlar o'tkazish va tanlov g'oliblariga grantlar ajratish va ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hamda ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha ko'rgazmalar tashkil etishni amalga oshirish zarur.

11. Tadbirkor ayollar iqtisodiy kategoriya sifatida zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida moslashuvchanlik va korxonalar boshqaruvida innovatsiyalarni joriy etishga intilish xususiyati yuqori bo'lgan mustaqil shaklda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi iqtisodiy subyektlar hisoblanadi.

12. Jahonda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga juda katta e'tibor qaratiladi. Aksariyat hollarda rivojlangan mamlakatlardagi aholida tadbirkorlar ulushi juda kam, ijtimoiy ta'minot yaxshi yo'lga qo'yilgani uchun ayollarning tadbirkorlik qilish xohishi nisbatan past, ammo rivojlanayotgan va daromadgi past o'lkalarda tadbirkor deyarli yarim aholini tashkil etar ekan, ayman ayollar kambag'allikdan chiqish uchun tadbirkorlikka, xususan, norasmiy faoliyat yuritishga moyil bo'lar ekan. Odatda, ayollar kichik va o'rta biznes subyekti sifatida ushbu mamlakat fuqarosi bo'lgan holda hamda faoliyatini mazkur hududda amalga oshirishi sharti bilan davlatning faol qo'llab-quvvatlashidan foydalanadi. Bunda davlat yordami xususiy tashabbuslar va jamiyatning ijobiy munosabati bilan uyg'unlashgan holdagina samara bermoqda.

13. Tadbirkor ayollar korxonalar boshqaruvinini "tabiiy" bo'lishini ko'proq istashadi. Boshqaruvga nisbatan bunday yondashuvda har bir xodim hamkasb sifatida umumiy ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonining ishtirokchisi sifatida namoyon bo'ladi. Korxonada bu turdagi boshqaruvning shakllanishi natijasida yollanma ishchilar bir jamoa sifatida, hamjihatlikda yuqori natijalarga erishishi mumkin bo'ladi.

14. Xususiy sektor va professional biznes uyushmalari bilan mentorlik va amaliyot o'tash imkoniyatlarini ishlab chiqish lozim.

17. Biznes-rejalarni yozish, o'z veb-saytlarini ishlab chiqishni o'rganish, xavflarni tahlil qilish va iqtisodiy foyda tahlili, axborot texnologiyalaridan foydalanish, mualliflik huquqini himoya qilish bo'yicha biznes-master darslar hamda mashg'ulotlar berish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, kraudfanding ko'pincha onlayn platformalar (masalan, Kickstarter, Indiegogo) orqali amalga oshiriladi. Biz esa buni tijorat banklari veb-saytlari orqali amalga oshiramiz. Loyiha yoki g'oya muvaffaqiyatli bo'lishi uchun aniq va qiziqarli bo'lishi kerak.


САИДОВА СУБХИНИГОР АЗИЗОВНА

ПУТИ УЛУЧШЕНИЯ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖЕНСКОЙ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИМИ
БАНКАМИ

08.00.07 - Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам



Ташкент – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2024.1.Phd/Iqt3782.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Научного совета (www.isue.uz) и на сайте информационно-образовательного портала «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:
Муминова Мамсула Бахтияровна
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, профессор

Ибодуллова Мазрифат Тулкин кизи
доктор философии по экономическим наукам, доцент

Ведущая организация:
Высшая школа бизнеса и предпринимательства при
Кабинете Министров Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/10.12.2019.1.16.01 при Ташкентском государственном экономическом университете «9» 12 2025 г. в 14⁰⁰ Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@isue.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под No 136). Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@isue.uz.

Автореферат диссертации разослан «20» 11 2025 г.
(реестр протокола рассылки No 107 от «20» 11 2025 г.).



С.У. Мехмонов
Присудитель научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

У.В. Гафуров
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

С.К. Худойкулов
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой экономике финансирование предпринимательской деятельности женщин коммерческими банками играет важную роль в стимулировании инклюзивного экономического роста, обеспечения гендерного равенства и создании новых рабочих мест. Благодаря поддержке женского предпринимательства будет обеспечен достаточный доступ к кредитным ресурсам, что позволит им реализовать свой бизнес-потенциал, увеличить семейные доходы и повысить конкурентоспособность на местных рынках. Кроме того, финансирование субъектов малого и среднего бизнеса, управляемых женщинами, дает большой импульс для углубления диверсификации экономики и внедрения инновационных идей в практику. Как отмечается в международных исследованиях, «банковские услуги, направленные на финансирование женского предпринимательства, являются важным фактором в повышении темпов экономического роста и сокращения бедности»²⁸. Из этого видно, что финансирование женской предпринимательской деятельности через коммерческие банки является важным драйвером устойчивого и инклюзивного развития мировой экономики.

В мировом масштабе проводятся важные и масштабные исследования по совершенствованию эффективных механизмов обеспечения занятости женщин. Одним из основных направлений исследований в этой области является повышение адаптации женской рабочей силы к изменениям в структуре современных рабочих мест, разработка эффективных и быстрых инновационных способов внедрения виртуальных рабочих мест, организация системы повышения квалификации на основе требований работодателей при повышении профессиональных навыков, совершенствование научных основ использования стратегий обеспечения дополнительных социальных гарантий с учетом модели жизненного цикла женщин, связанной с рождением и воспитанием детей.

Меры, осуществляемые коммерческими банками в Узбекистане по финансированию женской предпринимательской деятельности, включают задачи, направленные на обеспечение гендерного равенства и стимулирование инклюзивного экономического роста. В частности, банками созданы специальные кредитные линии для женского предпринимательства, запущены программы льготного финансирования, а также расширено выделение микрокредитов субъектам малого бизнеса и семейного предпринимательства. Одновременно организуются тренинги, бизнес-образовательные курсы и консалтинговые услуги, направленные на повышение финансовой грамотности женщин-предпринимателей. Благодаря системе «Женская тетрадь» внедряемой в стране с 2022 года, коммерческие банки имеют

²⁸ World Bank, Women, Business and the Law 2023, World Bank Group, Washington D.C., 2023. URL: <https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1972-8>

приоритетное значение в финансировании предпринимательских инициатив малообеспеченных и безработных женщин и служат повышению уровня их экономической активности. Реализация в Узбекистане последовательных мер по обеспечению занятости женщин, повышению их роли и авторитета в государственном и общественном управлении, созданию условий для реализации ими своего потенциала, гендерному равенству, защите семьи, материнства и детства требует проведения научно-исследовательских работ в этом направлении.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-37 от 21 февраля 2024 года «О Государственной программе «Год поддержки молодежи» Стратегии «Узбекистан-2030», № УП-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии «Узбекистан-2030», № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-122 от 7 марта 2024 года «О дополнительных мерах по поддержке создания и развития женского предпринимательства», № ПП-5020 от 5 марта 2021 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы поддержки женщин, обеспечению их активного участия в жизни общества» и других нормативно-правовых актах в данной сфере.

Соответствие исследованию приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. В научных работах зарубежных ученых-экономистов Э.Гидденса, Т.Парсона, Г.Спилласте сформулированы научно-теоретические подходы по повышению роли женского предпринимательства в вопросах совершенствования механизма финансирования женского предпринимательства коммерческими банками. Научные работы российских ученых А.Е.Колобовой, Ю.С.Пинковой, Н.Ю.Уткиной, А.С.Абриталиной, А.А.Моисеевой посвящены вопросам развития женского предпринимательства²⁹.

Вопросы развития женского предпринимательства в Узбекистане в диссертации Н.Р.Аннаевой «Вопросы активности женщин в социально-политических процессах, в частности, в предпринимательстве, имеют

определенное теоретическое значение»,³⁰ подробно изучены в научных работах Ж.Х.Бобаназаровой, М.М.Балтабаевой, М.С.Ганиевой, Д.Б.Ахмедовой, Н.М.Хасановой, Х.Б.Ходжаёрова и других³¹.

Однако наличие некоторых проблем в развитии женского предпринимательства в нашей республике обосновывает актуальность проведения исследований по данной научной теме.

